



OGAXIY XAFT PAYKAR DOSTONI NASRIY TARJIMASINING MATNIY TATQIQI

Abdullayeva Diyora Murat qizi

Toshkent Davlat Sharkshunoslik Universiteti

2-kurs Mantshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7214071>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 17th October 2022

KEY WORDS

Adiblar xiyoboni, Ichan-qal'a, Ta'viz ul-oshiqin, Guliston, "Riyoz ud-davla", "Jome ul-voqeoti Sultoni", "Zubdat uttavorix", "Gulshani davlat", «parivash», «pari», «pariro'y», "dastparvardai Munis", mustazod, muhammas, musaddas

ABSTRACT

Maqolada Xorazm adabiy muhiti, davr, ijtimoiy hayot va unda Ogahiyning tutgan o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Ogahiyning o'z davri ziyolisi sifatida jarayonlarga faol munosabati, ijodida aks etishi yoritilgan.

Xiva xonligi davrida turkiy tilda eng ko'p bitilgan nazmiy va nasriy asarlarning muallifi, Turkiy til tarjimonlik maktabining Zahiriddin Muhammad Bobur lafzi bilan aytganda "eng ko'b va eng xo'b" ijodkori va peshqadami edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 may kuni "Adiblar xiyoboni"ga tashrifi chog'ida adabiyot tarixida munosib o'rin tutgan ijodkorlar asarlarini o'rganish va targ'ib etish, yoshlarning ongiga singdirish vazifalari bo'yicha Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasiga "Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna" yo'nalishi berildi. Mumtoz shoir, sermahsul tarjimon, xassos muarrix, davlat arbobi – mirob, Xiva shahri Ichan-qal'a devoriy naqshin binolarining so'z bunyodkori – bosh

epigrafi Muhammadrizo Ogahiy haqida so'z yuritamiz.

Ogahiy Navoiydan keyingi ulkan siymolardan biridir. Ogahiy xalqimiz ma'daniyati, adabiyoti va ilm-fani tarixida iste'dodli shoir, mohir tarjimon, yirik muarrix, ma'rifatparvar shaxs sifatida yorqin iz qoldirgan. Atoqli madaniyat arbobi, klassik she'riyatning mohir ustasi, Xivadagi adabiy harakatning yuksak siymosidir. Ogahiy nihoyatda barakali ijod qilgan. Shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nomli ulkan devoni bir necha janrlarda yaratilgan 20 ming misradan ziyod she'rdan tarkib topgan.

U Xorazm xonligi tarixining turli davrlarini yoritishga bag'ishlab 5 ta mustaqil yirik tarixiy asar yaratgan. Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Abdurahmon Jomiyning



“Salamon va Absol”, “Bahoriston”, Nizomiyning “Haft paykar” kabi o‘lmas badiiy asarlarini, o‘nlab tarixiy kitoblarni mahorat bilan tarjima qilgan. Ogahiy ijodining qimmatli va harakterli tomoni shundaki, u Alisher Navoiy ijodiyotida yuqori pog‘onaga ko‘tarilgan adabiyotdagi eng ilg‘or, eng xalqchil g‘oyaviy-badiiy an‘analarni 19-asr sharoitida yuksak darajada rivojlantirdi. Ogahiy she‘riyati har qanday bachkanalikdan, o‘rtamiyonachilikdan tamomila xoli yuksak ishqiyy-tasavvufiy she‘riyatdir. To‘g‘ri, unda falsafiytasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, ta‘limiy-axloqiy ohanglar yo‘q emas. Umuman, uning she‘riyati rangin. Lekin bu mavzularning aksariyatini birlashtiruvchi narsa ishqdir, muhabbatdir.

Ogahiy she‘riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo‘lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbeh-u qiyoslar silsilasi o‘ziga xos, yangicha. Shoir har san‘atning, har bir detalning, ungacha ilg‘amagan qirralarini, borilmagan ma‘naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Ogahiy lirikasining, umuman Ogahiy 112 ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma‘shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg‘usi, sevgi haqidagi fikrlari egallaydi. Jamiyatda, hayotda sevgiga munosabat dastlab Ogahiy lirikasining umumiy ruhida hazinlik, nadomat motivini ustun qiladi. Oshiqlar, ko‘pincha yoriga yetolmaslik xususida chuqur hayajon, nadomat bilan hasrat qiladi.

Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti — „Ta‘viz ul-oshiqin“ („Oshiqlar tu-mori“, 1872) bizgacha to‘la yetib kelgan. Devon an‘anaviy tartibda tuzilgan, 470 g‘azal, 3 mustazod, 89 muhammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4

tarje‘band, 7 qit‘a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavi, 1 munojot, 1 oshiq va ma‘shuq savol-javobi, 20 ta‘rix, 19 qasida — jami 18000 misradan iborat. Devonga „Ash‘ori forsiy“ nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she‘ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundariyasi markazida ishq mavzui turadi. Shoir aruzning juda ko‘p bahrlaridan foydalangan. Uning g‘azallari „Shashmaqom“ning hamma kuylariga tushadi, Xorazm xalq ohanglariga mos keladi.

Ajdod, bo‘g‘im: “...nasabi olti orqada hazrati a‘lo xoqoniyning muborak nasabig‘a qo‘shulur”. Orqa so‘zi ushbu ma‘noda “Haft paykar” tarjimasida ham uchraydi: “bu bandayi haqir va ixlostaxmir Muhammad Rizo mirob al-mutaxallas bi-l-Ogahiy g‘afarallohu zunubahugakim, yetti orqadin, balki yetmish orqadin beri ul hazratning davlatlig‘ ostonining ixlosmandu dilxohi...durmen...” Asarda orqa so‘zi yana quyidagi ma‘nolarda ishlatilgan:

1. Orqa, oldning ziddi: “... orqa jonibg‘a yuz urdilar.
2. Shimol, janubning ziddi: “... orqa jonibida Tamoch mavze‘inkim, ahli fasodning yig‘noqig‘a yovuq erdi”.
3. Badanning orqasi: “... xandaqining osti hazozati doir ostidag‘i baliq orqasig‘a yetti. Shuningdek, qibla so‘zi shevalardagi kabi janub tomonni anglatgan o‘rinlarni ko‘plab uchratamiz: “Ko‘hna Urganch qal‘asining qiblasidin o‘tgan Ko‘hnadaryo rudxonasig‘akim, Shorqiroviqg‘a mavsumdur...”.

Ogahiydan boy ijodiy meros qolgan. U madrasada o‘qib yurgan paytlaridayoq “Bayozi mutafarriqai forsiy” nomli bayoz tuzadi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy g‘azallarini kiritish



bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o'zining o'n besh g'azali va ikki muxammasini qo'shgan. Ogahiy ustoz Munis boshlab qo'ygan, ammo, tugallab ulgurmagan tarixiy "Firdavsul-iqbol" asarini oxiriga yetadi. Bundan tashqari Xiva xonligi tarixiga oid "Riyoziy ud-davlat", "Jome ul-voqeoti Sultoniy", "Zubdat uttavorix", "Gulshani davlat", "Shohidi iqbol" nomli tarixiy asarlarni yozgan. Ogahiy jahon madaniyatini nodir durdonalari hisoblangan Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Shayx Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Hiloliyning "Shoh va gado", Kaykovusning "Qobusnoma", Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Shoir o'z she'rlarida kishi ruhiy boylikka ma'rifat orqali erishmog'i mumkinligi haqida uqtirib, nodonlik-johillikka qarshi jamiyatni ilm-ma'rifatga chaqiradi

Sharq shoirlari pariga yuksak aql-idrok va ideal go'zallik ramzi deb qaraganlar. Alohida baytlar, ba'zan butun boshli g'azallar mazmuniga u haqdagi sifatlar singdirilgan. She'riyatda pari obrazi bilan bog'liq fikr-tuyg'ular xalq afsonalari, ertak va dostonlari mazmunidan oziqlansa-da, yangi-yangi ma'no qirralarini kasb eta borgan. Natijada, pari obrazi badiiy vosita sifatida qo'llanilib, tengsiz go'zallik, ma'naviy yetuklik, insoniylik sifatleri ulug'langan, romantik orzular tasvirlangan. Ogahiy o'z ijodida pari obraziga qayta-qayta murojaat qilib, har gal uning turli-tuman sifatlarini aks ettiradi. Shoir lirikasida pari bilan bog'liq she'rlarning ko'pchiligini ma'shuqaga «parivash», «pari», «pariro'y», «pari paykar», «pari ruxsor» deb nisbat beruvchi baytlar tashkil etadi. Oshiq ko'pincha sevgilisiga «ey pari» deb

murojaat qiladi: Gul yuzingni toki ko'rdi, ey pari ruxsora gul, Jaybini devonalardek ayladi yuz pora gul Ma'shuqa – pari. U oshiq ta'biricha, husnda yagonalik ramzi.

Ma'lumki, mumtoz she'riyatda gul go'zallik timsoli sifatida qo'llanilib, ma'shuqa bilan bog'liq fikr-tuyg'ularni ifodalashda vosita rolini o'ynaydi. Ogahiyning tasviricha, ma'shuqani ko'rganda husnda tengsiz bo'lgan gul ham yoqasini yuz pora qiladi. Chunki yorning go'zalligi aqlu hushdan judo qila olish xususiyatiga egadir. Tasavvufiy mantiq nuqtai nazaridan esa yuzda ilohiy nur jilvalanadi. Sayyid Ja'far Sajjodiyning bu xususdagi fikrlariga tayangan adabiyotshunos S.Rafiddinov shunday yozadi: «Yuz deb nur va suratlar ma'nosi yuzasidan zavq bilan oxiriga yetuvchi tajalliyni, shuningdek, imon nurlari va irfon eshiklarining ochilishi va haqiqiy jamol pardalarining ko'tarilishini aytadilar». A.Rustamov fikriga ko'ra, gul – oshiqning ma'rifatni egallash uchun ishtiyoqi kuchaygan yoshlik davridir.

"Bu yil mohi mazbur, ya'ni zu-l-qa'daning o'nunda shanba kuni Erniyoziy bekg'akim, faqirning inisidur, hazrat vohibilatoyo bir farzandi arjumand va valadi saodat payvand ato qildi. Va ul nuri hadiqai jalol va navvari hadiqai kamol Muhammadrizobekka mavsum bo'ldi. "Anbatuhulloh nabotan hasanan". Bu jumlada biz Shermuhammad Munisning "Firdavs ul-iqbol" asarida Muhammadrizo Ogahiy haqidagi ilk ma'lumotni, ya'ni 1224 yil 10-zu-l-qa'da/1809 yil 17 dekabrda Munisning inisi Erniyozbekning o'g'li Muhammad Rizobek – Ogahiy tug'ilgani haqida ma'lumot olamiz. Va Qur'oni karim, 3-sura Al-Imronning "Ollohi taolo uni ko'rkam o'stirdi" 37-oyatidagi ishorani ko'ramiz.

Bilamizki, sharq mumtoz she'riyatida har bir shoir devon tartib beradi. Devonning



kirish qismida, ya'ni debochada shoir o'z hayoti va ijodi haqida ma'lumot berib, Ogahiy ham birlamchi manbalarni devoni "Ta'viz ul-oshiqin" (Oshiqlar tumori) da keltiradi. Sayyid Muxammadxon hukmronligi davrida, uning shogirdi, taxt vorisi Muhammad Rahim II – Feruz (1864-1910) farmoniga ko'ra tuzilgan. Devon 1288 / 1872-1873 oldin tuzilgan bo'lib, 810 ta forsiy va turkiy she'r – 18000 misradan tarkib topgan. Hozirda devonning 10 ta qo'lyozmasi va 2 ta toshbosma nashrlari mavjud. Bugungi ko'rsatuvimiz, bobomiz Ogahiy o'z hayot, faoliyat va ijodlarini o'zlari devonda tavsif qilgan yo'ldan boramiz:

Ogahiy o'zbek elining qiyot urug'idan bo'lib, uning hayotida Shermuhammad Munis katta rol o'ynagan. Birinchi navbatda, shoir devonida yoshlik chog'idan ilmga chanqoqligini, shoiru olimlar davrasida bo'lishga intilganini yozgan. U maktabni tugatgandan so'ng, madrasanishinlik, zamonaviy til bilan aytganda Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirib, ilm olishni davom ettirganini yozadi. Ogahiy odatdagi 7-8, 10-11 yoki 12-13 baytlik g'azallar yozish tartibini buzib, mazmun talabi bilan 20 baytlik va 23 baytlik g'azallar yozdi. Rahnamosi, maslakdoshi, shogirdining – davr hukmdorlari bo'lgani, ularga so'z qadrini bildirgan olgani, turkiy nazmni davlat siyosati darajasiga ko'targani sohibiqalamning katta yutug'idir. Ogahiyning pusht-u kamari bo'lmasa-da, bir necha yuz yillardirki, ijodlarining sadoqatli izdoshlari bor. "Ogahiy Feruz shohning ijodga rag'batlantirganini, natijada "ko'ngliga quvvat va tab'iga jur'at" bilan ko'pdan-ko'p she'rlar yozganini so'zlaydi, bu ham Navoiy debochalari mazmun-ruhini eslatadi. Ogahiy debochasidan quyidagi parcha ham Navoiyga "etishgan hukm"ning bir ko'rinishi darajasida:

"... dilnavozlik yuzidin xitob qilib dedikim: – Barcha musavvadalaridagi va bayozlardagi va o'zga yerlardagi parishon bo'lgan she'rlaringni jam' etib, devon suvratida tartib bergil va anga debocha ham yozib so'ngra aytilgan ash'oringni dag'i hamul devonda o'z mahalida raqam silkiga gavhar yanglig' tergil!" Qo'ng'irotlar sulolasining Alisher Navoiyga ergashish adabiy prosopografiyasining boshida Shermuhammad Munis turgan edi. Shoir Navoiyni ma'nan ustoz va piri deb biladi. Aynan Munis ijodi Ogahiyning Navoiy ijodiga bog'lovchi ko'priq vazifasini bajargan. Chunki Munis Muhammadrizo Ogahiyning ustozigina emas, rahnamosi ham bo'lgan. Ogahiy Navoiy singari otadan erta yetim qolgan. Hazrat Alisher tarbiyasiga tog'alari – yetuk shoirlar Mirsaid Kobuliy va Muhammadali G'aribiylarning ta'siri kuchli bo'lganidek, Munis ham Muhammadrizoning tog'asi sifatida uning hayoti va ijodida yetakchi shaxs edi. U "dastparvardai Munis" ekanligini, tog'asining devoniga o'xshatib debocha yozganidan bilsa bo'ladi. Muhammadrahimxon I Munisga, Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga homiylik qilganidek, Muhammadrahimxon II Ogahiyga rahnamolik qilgan. Shuning natijasida Munis saroy mushoiralariga jiyani, amakizodasi Muhammadrizo Ogahiyning jalb qila olgan. Ogahiy iqtidori va fenomenal mehnatkashligi bilan MuhammadrahimxonII davriga kelib, sadrnishin martabasida erishadi: "Mirobliq mansab-i oliysig'a mansub va sadrnishinlik martaba-yi mutolisig'a mansubdurman". Adabiyotshunoslar ikki shoirning lirikasi bilan yaqindan tanishgach, Alisher Navoiy ijodidan so'ng barakali ijod qilgan sa'natkor sifatida haqli ravishda Muhammadrizo Ogahiyning qo'yadilar O'rta asrlarda tarixiy



Xuroson, Movarounnahr va Xorazm hududlarda hukmronlik qilgan sulolalar soʻz sehrini va undagi kamol zavqini davlat siyosatiga koʻtarganlar. Alisher Navoiy chigʻatoy turkiy adabiyotining bunyodkori edi. Uning devonlari debochasini koʻrganimizda, rus matnshunos olimi D.S. Lixachevning “yagona adabiyot binosi yaratuvchilari” degan teoriyasini eslaymiz. Arab adabiyotining nazariyotchisi Ibn Roshid (XII asr) “qadimgi va yangi davr shoirlari ikki inson kabidir, birinchisi adabiyot binokori, uni mustahkam va yaxshi quradi. Ikkinchisi binoga naqsh va bezaklar beradi. Oʻrta asr shoiri adabiyotga yaxlit bino sifatida qaragan. Ogahiy lirikasi yangi

davrning “qayta quruvchisi” edi, uning soʻzlaridan foydalanib, Muhammadrahimxon II Feruz (1864 – 1910) Xorazm adabiy muhitini yaratgan. Ichan-Qaʼla majmuasidagi eng koʻp epigrafik yozuvlar Ogahiy qalamiga mansub. Shoirning soʻzlari vositasida Feruz, devorlarda ham insonlarni ilmga targʻib qilgan. Vengriya olim A.Vamberi shunday deb yozgandi: Istalgan maʼrifatli millatga nisbatan Oʻrta Osiyolik koʻchmanchining musiqa va xalq turkiy sheʼriyatiga berilishi nisbatan kuchlidir. Qoʻqon, Buxoro va Qashqarga nisbatan Xiva xonligida bunday ehtiros yanada yuksakroqdir.

References:

1. Devoni Komil. Qoʻlyozma. OʻzR FA Sharqshunoslik instituti fondi, Inv.Nº1949.
2. Jabborov N. Ogahiyning adabiy-estetik va maʼnaviy-axloqiy mezoni. Ogahiy – shoir, muarrix, tarjimon //Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Urganch.: 2019.
3. Komil. Devon. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1975. 66
4. Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. II jild. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1972.
5. Ogahiy. Gulshani davlat. Qoʻlyozma. OʻzR FA ShI Qoʻlyozmalar fondi, Inv.79.
6. Yunusov M. Komil Xorazmiy. – T.: Badiiy adabiyot, 1960.